

UDK:633.174

PIYOZNING KELIB CHIQISHI, TARQALISHI VA XALQ XO'JALIGIDAGI
AHAMIYATI.D.Hayitboyev¹Yuldashev Suxrobjon²

1Qorqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti assistenti,

2Qorqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya; Piyozni ekish usullari va ularning afzaliklari hamda ularni yangi usullarda hosildorligini ko'paytirish usullari. Urug' sarfi va ularni ko'chatlari orqali ekish samaradorligi.

Kalit so'zlar. Piyozni ekish usullari, ekish muddatlari, ulardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xafsiqliklarni taminlash hamda tuproq sutrukturasini yaxshilash.

Piyozi – loladoshlar oilasiga mansub ikki yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, sabzavot va manzarali ekin. Shimoliy yarim sharda 500 ga yaqin turi ma'lum. Eng ko'p turlari O'rta osiyo, Kavkaz, Sharqiy sibir, kamroq turi yevropada va Uzoq Sharqda uchraydi. O'zbekistonda piyozi doira piyozi, piskom piyozi, ko'rimsiz piyozi, havorang piyozi, chimyon piyozi, Seversov piyozi kabi 15 dona yavvoyi turi uchraydi. Asosan, 6 turi – osh piyozi (vatani O'rta osiyo va Afg'oniston), batun piyozi (vatani Sharqiy sibirning janubi), porey piyozi (vatani O'rta yer dengizi bo'ylari) va boshqa yerlarga ekib yetishtiradi.

Nuritdinov takidlashicha o'zbekistonda oddiy piyozning 6 ta navini.

Bular oddiy piyozning ertapishar Karatal'skiy, o'rtapishar "Margelanskiy", "udlinyonniy", "mestniy" va kechpishar Ispanskiy 313, Istikbol, Kaba-132, Samarkandskiy krasniy 172 navlaridir.. Sinov shaxobchalarida ularning o'rtacha hosildorligi 150-350 ts/ga ni tashkil etgan.

Avezov S.D ta'kidlashicha piyoz ekinlari 6 ming yildan beri insoniyatga ma'lum ekin turlaridan bo'lib, 4 ming yildan beri iste'molga ishlatilib kelinadi. Hozirgi zamonga kelib piyozdosh sabzavot ekinlari dunyoning barcha xududlarida ekilib kelinadi. Ayrim manbalar bo'yicha tabiiy holda piyozlarning 400 dan ortiq navi ma'lum bo'lib, shulardan 230 ga yaqin navi MDH davlatlari hududiga to'g'ri keladi, boshqa ma'lumotlarga ko'ra piyozlarning 1000 dan ortiq navi bo'lib, ularning 150 tasi MDH hududida qayd etilgan.

Ko'pchilik olimlar oddiy piyoz va sarimsoqning vatani O'rta Osiyo va Afg'onistonning tog'li hududlari deb hisoblaydilar. Chunki, bu yerlarda piyozning mahalliy xalqlar tomonidan iste'mol qilinadigan juda ko'p yovvoyi shakllari mavjud. Batun-piyoz va ko'p yarusli piyozlar Sharqiy Sibirning janubiy qismlaridan va uning Xitoy hamda Mongoliyaga yaqin joylaridan kelib chiqqan. Porey-piyozning vatani O'rta yer dengizi sohillaridir. Shnitt va shalot piyozlari Janubiy Osiyodan kelib chiqqan.

A.Sh Jo'ryev yozishicha piyozguldoshlarning xarakterli belgisi uning «tirik tug'uvchanligidir» chunki piyozboshi yonida mayda piyozchalar hosil bo'ladi. Masalan sarimsok piyozi (*A. Sativum*) doim shu yo'l bilan ko'payadi. Bu oilaga oddiy piyoz - *Allium sepa* L., sarimsok - *A. Sativum* L. yovvoyi cho'l piyozi - *A. Siffithianun* cho'l piyozi - *A. caspium*lar kiradi. Ular ichida cho'lpiyoz zaharli o'simlik hisoblanadi.

T.E Ostanqulov takidlashicha piyoz navlari tarkibida 14,0-16,5 % quruq modda, 7,8-11,1 % shakar, shu jumladan 4,8-8,2 % saxaroza, 1,4-6,90 mg % S vitamin bor. Yashil bargida esa 19-57 mg % S vitamin bo'lib, A1, B1, B2 vitaminlarga boy.

Bulardan tashqari piyoz tarikibida oz miqdorda limon va olma kislotalari, sirtqi quruq po'stlarida esa sariq kvartsetin bo'yoq moddasi bo'ladi.

Bu oilaga 32 avlod 750 tur o`simliklar kiradi. Shulardan 310 tasi piyozlar avlodiga mansubdir. O`zbekiston florasida bu oiladan 165 turi uchraydi. Piyozguldoshlar yer qismining hamma qismida xususan dasht va cho`l zonalarida keng tarqalgan. Barcha piyozguldoshlar o`t o`simligi bo`lib, yer ostida piyozboshi yoki ildizpoyasi bo`ladi. Efermeroidlari ham uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A. ‘Himoyalangan yer sabzavotchiligi” T-2018
- 2.Zuev V.I, Asatov. Sh.I.O. Qadixodjaev, Ataxadjaev A. A.”Sabzavotchilik” Toshkent-2008
3. G.T.Erejepova, A.S.Abdigapbarov, N.N. Ismoilova “Sabzavotchilik”N., “Bilim”2024. O`quv qo`lanma.